

Yana qimmatchilik boshlandi.

Maorifda tuban qolg'on, madaniyatdan uzoq bir xolda yashagon xalq orasinda inqilob xarakatlarini xalqni taqir talatdirmaslik ravishda olib bormoq uchun, inqilob boshinda yurgan kishilarning xalqini iqtisodiy jihatdan mushkul xolga tushurmaslik to'g'risinda diqqat va e'tibor etarga tegishlidirlar. Aks xolda inqilobning nima uchun kerakligini va xuriyatning nimadan iborat ekanligini bilmagan qora xalq, yolg'onchilik savdo bolig' tutorg'a o'rgangan kishilarning qo'rg'on tuzoqlarig'a tushajaklari mumkindir. Inqilob torixinda bu xol tajribalar bilan isbotdir.

Ikki yildan ziyoda bo'ldiki, Turkiston xalqi iqtisodiy jihatdan g'oyat og'ir xollarni o'tkarmakdadir. O'tkan 18 inchi yildag'i g'allaning yaxshi o'ngishi ham, Turkiston xalqini bunday og'irliqdan va ochliqdan qutqara olmadi. Turkiston xalqi hamon och, Turkistonda har narsa qimmat va kundan kun dahshatli ravishda har narsa hamon qimmatlanib bormoqdadir. Hukumat doiralarinda uyoqg'a xizmat qilg'on kishilarda olg'on xaqlarining maishatlariga yetmaganlikdan shikoyat etmakdalar. Holbuki xukumat doiralarinda elg'a xizmat qilg'on kishilarga qarag'onda hech bir yerda xizmat qilmag'on kishilar qiyos qabul etmas darajada ko'bdir. Bu bechoralar nechuk maishat qilar ekan?

Qimmatchilik shu darajaga keldiki: olinadurg'on mohiyani ikki marta oshurulg'onda ham maishatg'a kifoyat eta olmayajakdir. Durust! Mohiyalarning bir necha foiz oshajag'i suylanmakdadir. Faqat buning bilangina inqilobning ustugoni bo'lg'on faqir xalq iqtisodiy og'irliqdan najot topa olmayajakdirlar. Xalqg'a bir necha darajada zarur narsalarning kundan kun xoriq a'loda bir suratda qimatlanib borishi, mohiyalarda bo'lg'on tabdilotni hech xolinda qoldirajakdir. Bu xolda mohiyalarning oshurilmog'ondan ko'ra, xalqg'a bir necha darajada zarur bo'lg'on narsalarnig arzonlashmog'i to'g'risinda chora va tadbirlar qilmoq yana yaxshiroq bo'lajag'ini tan olmoqg'a bilmagan va uyalmag'on kishi bo'lmasa kerak. Bir kishiga har oyda bundan so'ng 1200 va 1500 so'm mohiya bermak qimmatchilik o'zining dahshati bilan davom taraqqiy qilib turg'on xolda foydasiz bo'lmog'i bilan barobar qog'az kahatchiligida maydong'a keturmakdan boshqa hech bir xizmat qila olmayajakdir.

Qimmatchilik bunday davom etajak bo'lsa istiqbolimiz g'oyat qorog'ulig'ida qolur. Zotan: axvoli hoziraga qarab xalqda kundan kun mayusiat ortmoqdadir. Bundan 5-10 g'ina kun muqadam unning puti yuz so'm, birinchning puti ham mundan ko'b yuqori emas edi. Emdi unning pudi 180, birinchning puti 200 so'mg'a chiqmishdir. Buning oldi olinmayajak bo'lsa, qimmatchilik albatta bu darajada kabi ham qolmas, bunga faqir xalq uchun g'oyat vaxim natijalarni muvajib bir xolda oshajakdir.

Xalqda bor narsalarning xammasi xalqdan olindi. Ixtiyoriy savdogarlardan bir narsa olmoq bu kun imkon xorijindadir. Maxzud oyliqg'a xizmat qilaturg'on

kishilarning butun mohiyasi bir oyliq qopg'a vaqo etmaydir. Ahvolning bunday borishi xalqni tamomila och va yalang'och qiladir. Ochliq bo'lg'oni uchun alarning istiqbolg'a mayusiat ko'zlari bilan qarayajaqlari tabiiydir.

Dunyoda har dardning bir darmoni va har bir illatningda bir chorasi bordir deyurlar. Lekin jumhuriyatimizning iki yildan beri o'tkarmakda bo'lg'on axvoli uchun bir chora va iloj bu kun hamon yo'q kabidir. Sanoat ishlarini taraqqiy etdurub ba'zi zarur narsalarni o'zimizda ishlatajak o'runda biz duchor o'ldug'imiz falokatning choralarni xorijdan ko'zlang. Chet va g'ayri gazvor xozirlamak uyoqda tursun, xatto sanoatning eng ibtidosi bo'lg'on gugurt ham ishlay olmadiq! Sarvat tabiiyga eng boy va bir necha shaharlarinda temir korxonolari bo'lg'on Turkiston o'lkasinda hanuz sanoat jihatindan eng oldin bo'lg'on millatlardane 30 ming qadar xarbi asirlari bo'lg'on bu qit'ada, iki yil ichindada zavud va fobrikalar ta'sis etmak uchun moshina asboblari yasay olmoq ham mumkin kabi edi. Nahot biz bu narsalarni yana moskudan kutmakdamiz.

O'tkan qishda shaharning ichina va xorijinda bo'lg'on yog'ochlarni kesib, ming turli azob bilan hul o'tunlarni yoqib bir nav qishni o'tkardik. Xolbuki butun Turkistonni yoqish asbobi jihatindan tayin qilib turg'on bir necha ko'mir konlarimiz bor edi. Ajabo! Bulardan nima uchun istifoda eta olmadiq? Agar bulardan bundan so'ng ham istifoda eta olmasaq idorada oyoqsizligimizni bildurmakdan boshqa kelajak qishda ham o'tun jihatindan g'oyat mushkul bir xolda qolajag'imiz aniqdir. Ishchilar xukumatini yashatmak fikrinda bo'lg'on boshliqlarimiz bu xususlarida chora va tadbirlar ko'rmakka teushli edilar. Lekin Maltasuf: qo'lda bo'lg'on eski narsalarni butkorubda jumhuriyatning o'zinda yangi narsalar yetishdurmak to'g'risinda sa'y va ijtixodlar hamon yo'q kabidir.

G'ozî Yunus - Ishchi. G'ayri rasmiy qism. Mehnatkashlar tovushi.

1919-yil 10-may, 77-son.

(G.O.)